


2021- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

4 568,9
mlrd. soʻm


110,1 %

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **4 568,9 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **110,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 810 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 338 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlaringin o'tgan yilga nisbatan **111,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **65,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **124,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **14,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin **115,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,7 %**) o'sishidir.




Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2020- yil	01.11.2021- yil	
Surxondaryo viloyatii	2 472	2 810	113,7
Termiz sh.	721	821	113,9
tumanlar:			
Oltinsoy	54	71	131,5
Angor	143	167	116,8
Bandixon	38	58	152,6
Boysun	154	133	86,4
Denov	141	186	131,9
Jarqo'rg'on	203	236	116,3
Qiziriq	144	157	109,0
Qumqo'rg'on	153	156	102,0
Muzrabot	112	118	105,4
Sariosiyo	136	158	116,2

Termiz	221	244	110,4
Uzun	51	66	129,4
Sherobod	82	101	123,2
Sho'rchi	119	138	116,0


**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.11.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,2 %), Termiz tumani (8,7 %) va Jarqo'rg'on (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **595,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,7 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,6 %** punktga kamayib, **13,0 %** ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar- oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **60,6 %** i yoki 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **96,8 %**), Qumqo‘rg‘on (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **18,7 %** i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **101,5 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,7 %** i, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **200,6 %**) ga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiylajmiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,4 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etgan holda **2 849,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi yoki **1 124,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **114,0 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **26,6** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 542,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,6 %** va **99,4 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Surxondaryo viloyati	4 568,9	26,6	0,6	4 542,3	99,4
Termiz sh.	1 137,6	26,6	2,3	1 111,0	97,7
tumanlar:					
Oltinsoy	75,3	-	-	75,3	100,0
Angor	166,2	-	-	166,2	100,0
Bandixon	66,7	-	-	66,7	100,0
Boysun	240,0	-	-	240,0	100,0
Denov	341,2	-	-	341,2	100,0
Jarqo'rg'on	276,7	-	-	276,7	100,0
Qiziriq	104,9	-	-	104,9	100,0
Qumqo'rg'on	195,9	-	-	195,9	100,0
Muzrabot	309,8	-	-	309,8	100,0
Sariosiyo	663,0	-	-	663,0	100,0
Termiz	447,7	-	-	447,7	100,0
Uzun	182,5	-	-	182,5	100,0
Sherobod	251,3	-	-	251,3	100,0
Sho'rchi	110,1	-	-	110,1	100,0

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-oktabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,8 % i yoki **3 600,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

78,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **527,9** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 88,7 % ni tashkil etdi

88,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **2 076,7** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 72,9 % ni tashkil etdi.

72,9 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **996,1** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 88,6 % ni tashkil etdi.

88,6 %




**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. soʻm)	Oʼsish surʼati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	4 568,9	110,1	100,0
Termiz sh.	1 137,6	108,0	24,9
tumanlar:			
Oltinsoy	75,3	135,5	1,6
Angor	166,2	122,9	3,6
Bandixon	66,7	120,1	1,5
Boysun	240,0	109,7	5,2
Denov	341,2	128,4	7,5
Jarqoʼrgʼon	276,7	112,7	6,1
Qiziriq	104,9	105,4	2,3
Qumqoʼrgʼon	195,9	112,0	4,3
Muzrabot	309,8	114,0	6,8
Sariosiyo	663,0	105,7	14,5
Termiz	447,7	103,8	9,8
Uzun	182,5	103,5	4,0
Sherobod	251,3	105,9	5,5
Shoʼrchi	110,1	106,8	2,4

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarinining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,9 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamayib, **64,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga ko'payib, **34,3 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **51,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **48,2 %** (**1,5 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,3 %** punktga ko'paydi va **16,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **83,8 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,3 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida
tumanlar kesimidagi qurilish ishlari





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 76 225-65-59